Tadbirkorlardan olinadigan axborot, iste'mol talabi, xizmatlardan foydalanish natijalari va tashqi muhitdagi o'zgarishlar raqamli monitoring tizimi orqali qayta ishlanadi. Olingan ma'lumotlar asosida infratuzilma xizmatlari yangilanadi, resurslar qayta taqsimlanadi va yangi qo'llab-quvvatlash instrumentlari ishlab chiqiladi. Shu tariqa



modelning moslashuvchan boshqaruv jarayoni monitoring — tahlil — ehtiyojni aniqlash — resurslarni qayta taqsimlash — xizmatlarni yangilash — qayta aloqa ketma-ketligida ishlaydi (1-rasm; 1-jadval).



1-rasm. Raqamlashtirish sharoitida kichik biznes faoliyatini infratuzilmaviy ta'minlashning tizimli-moslashuvchan konseptual modeli ³

1-jadval

Kichik biznes infratuzilmasining moslashuvchanligi va natijadorligini baholash ko'rsatkichlari⁴

Baholash yo'nalishi	Asosiy ko'rsatkichlar	Kutiladigan iqtisodiy natija
Foydalanish imkoniyati	Xizmatlar qamrovi, hududiy yaqinlik, narx jihatidan maqbullik, elektron kanallar mavjudligi	Tadbirkorlarning infratuzilmaviy xizmatlardan foydalanish darajasi oshadi
Tezkorlik va uzluksizlik	Arizalarni ko'rib chiqish muddati, xizmat ko'rsatish tezligi, tizim uzilishlari davomiyligi	Vaqt va tranzaksiya xarajatlari qisqaradi
Axborot integratsiyasi	Ma'lumotlar bazalari uyg'unligi, platformalararo almashinuv, takroriy ma'lumot talabining kamayishi	Boshqaruv jarayonlari soddalashadi va shaffoflik oshadi
Moslashuvchanlik	Yangi xizmatlarni yaratish tezligi, resurslarni qayta yo'naltirish, individual ehtiyojlarga moslashtirish	Tashqi o'zgarishlarga javob qaytarish imkoniyati kuchayadi
Raqamli xavfsizlik	Ma'lumotlarni himoya qilish, foydalanuvchini identifikatsiyalash, tizimlarning kiberbardoshliligi	Faoliyat uzluksizligi va raqamli xizmatlarga ishonch ta'minlanadi
Iqtisodiy natijadorlik	Moliyalashtirishga kirish, xarajatlar dinamikasi, korxonalar yashovchanligi, unumdorlik va innovatsion faollik	Kichik biznesning barqarorligi va hududiy raqobatbardoshlik oshadi

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tadbirkorlik infratuzilmasini baholashda faqat texnoparklar, banklar, konsalting markazlari yoki elektron platformalar sonidan foydalanish uning iqtisodiy natijadorligini to'liq ifodalamaydi. Baholashning asosiy obyekti tadbirkorning tegishli xizmatni qanday muddatda, qanday xarajatlar evaziga va qay darajada sifatli olgani bo'lishi lozim. Shu sababli infratuzilmaning moslashuvchanligi


³ Manba: Muallif ishlanmasi.

⁴ Manba: Muallif ishlanmasi.



xizmatlardan foydalanish imkoniyati, tezkorlik, integratsiya, moslashuvchanlik, raqamli xavfsizlik va iqtisodiy natija ko'rsatkichlari asosida aniqlanishi maqsadga muvofiq.

2-rasmda infratuzilma xizmatlarining natijadorligini baholash mexanizmi taklif etilgan. Unda tadbirkorlar ehtiyojlarini aniqlash, xizmatlarning tezkorligi, sifati, integratsiyasi va xavfsizligini raqamli monitoring qilish hamda natijalarga ko'ra resurslarni moslashuvchan boshqarish nazarda tutiladi. Yakuniy samaradorlik korxonalar barqarorligi, moliyalashtirish imkoniyati, innovatsion faollik va mehnat unumdorligi orqali baholanadi (2-rasm).



2-rasm. Kichik biznes infratuzilmasining moslashuvchanligi va natijadorligini baholash mexanizmi⁵

Yuqoridagi nazariy-konseptual yondashuvlarni umumlashtirish asosida raqamlashtirish sharoitida kichik biznes infratuzilmasini kichik tadbirkorlik subyektlarining tashkil topishi, barqaror faoliyat yuritishi, bozor ko'lamini kengaytirishi, innovatsion rivojlanishi va raqamli transformatsiyasini ta'minlovchi moddiy-texnik, moliyaviy, institutsional-huquqiy, axborot-konsalting, innovatsion, logistika va raqamli-platformaviy resurslar hamda ularni taqdim etuvchi davlat, bozor va jamoat institutlarining o'zaro integratsiyalashgan hududiy tizimi sifatida ta'riflash mumkin.

Bunda infratuzilma tadbirkorlik faoliyati uchun zarur obyektlar, institutlar, resurslar va xizmatlar majmuini ifodalasa, infratuzilmaviy ta'minot ushbu imkoniyatlarni tadbirkorlik subyektlariga uzluksiz, tezkor va iqtisodiy jihatdan maqbul shartlarda yetkazish hamda ulardan foydalanish natijadorligini boshqarishga xizmat qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy jarayon hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes infratuzilmasini baholash an'anaviy mezonlar bilan cheklanmasdan, hududiy tafovutlar, axborot tizimlari integratsiyasi, raqamli kompetensiyalar, kiberxavfsizlik va innovatsion moliyalashtirish imkoniyatlarini ham qamrab olishi lozim. Shu bois infratuzilmaning rivojlanganligi uning elementlari mavjudligi bilan emas, balki ularning o'zaro integratsiyasi, tadbirkorlar ehtiyojlariga moslashuvchanligi va yagona raqamli ekotizimdagi samaradorligi bilan belgilanishi maqsadga muvofiq.

2-jadvalda taklif etilgan vositalarning huquqiy asoslaridan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-noyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-244-son⁶ Farmoni hisoblanadi. Mazkur Farmonda tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish yukini kamaytirish hamda yangi mahsulot va xizmatlarning bozorga kirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish muhim yo'nalishlar sifatida belgilangan. Shuningdek, "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" dasturida tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy va institutsional ko'makni o'zaro integratsiyalashgan xizmatlar tizimi asosida ko'rsatish nazarda tutilgan (2-jadval) [2].

⁵ Manba: Muallif ishlanmasi.

⁶ <https://lex.uz/uz/docs/-6279879>



2-jadval. Raqamlashtirish sharoitida kichik biznes infratuzilmasi faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va ularni amalga oshirish vositalari⁷

Rivojlantirish yo'nalishi	Amaldagi holat va rivojlanish imkoniyatlari	Taklif etilayotgan tashkiliy-iqtisodiy vositalar	Kutiladigan natija
Normativ-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish	Biznes yuritish jarayonlarida tartib-taomillarni soddalashtirish, yangi biznes modellari uchun huquqiy aniqlikni kuchaytirish imkoniyatlari mavjud	Tartibga solish ta'sirini baholash; normativ talablarni raqamli inventarizatsiya qilish; "tartibga solish qumdoni"; elektron litsenziyalash; tadbirkorlarning huquqiy savodxonligini oshirish	Ma'muriy xarajatlarning qisqarishi, huquqiy aniqlik va tadbirkorlik faolligining oshishi
Boshlang'ich va o'sish kapitalidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish	Kichik biznes subyektlari uchun garov ta'minoti, kredit tarixi va uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini rivojlantirishga ehtiyoj mavjud	Kredit kafilligi va tavakkalchilikni taqsimlash; fintech-skoring; mikromoliyalashtirish; lizing va faktoring; venchur hamda ulushli moliyalashtirish; loyihalarni moliyaviy tayyorlash xizmatlari	Moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi va investitsion faollikning oshishi
Ma'muriy va soliq xizmatlarini raqamlashtirish	Hisobotlarni taqdim etish, idoralararo ma'lumot almashinuvi va rasmiylashtirish jarayonlarini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud	Yagona raqamli identifikatsiya; integratsiyalashgan elektron hisobot; riskka asoslangan nazorat; "bir marta taqdim etish" tamoyili; soddalashtirilgan raqamli hisob yuritish	Vaqt va tranzaksiya xarajatlarning qisqarishi, faoliyatning rasmiylashuvi va xizmatlar sifati oshishi
Axborot va konsalting xizmatlarini integratsiyalash	Davlat dasturlari, bozorlar, standartlar va moliyalashtirish manbalari haqidagi axborotni yagona tizimda jamlash imkoniyatlari mavjud	Yagona biznes portali; ochiq ma'lumotlar; hududiy maslahat markazlari; onlayn diagnostika; individual "biznes navigator" xizmatlari	Tadbirkorlarning xabardorligi va boshqaruv qarorlari sifatining oshishi
Malakali kadrlar va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish	Elektron savdo, ma'lumotlar tahlili, raqamli marketing va avtomatlashtirish bo'yicha ko'nikmalarni mustahkamlash zarurati mavjud	Qisqa muddatli modulli kurslar; mikro-malaka dasturlari; dual ta'lim; universitet-biznes hamkorligi; masofaviy maslahat va mentorlik	Mehnat unumdorligi, raqamli kompetensiyalar va texnologiyalarni o'zlashtirish darajasining oshishi
Hududiy infratuzilmaviy imkoniyatlarni kengaytirish	Internet, logistika, energetika, ishlab chiqarish maydonlari va servis xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini hududlar kesimida yanada yaxshilash mumkin	Davlat-xususiy sheriklik; hududiy logistika markazlari; keng polosali internet; kichik sanoat zonalar; umumiy foydalanishdagi uskunalar markazlari	Chekka hududlarda bozorga kirish imkoniyatining kengayishi va hududiy biznes faollikning oshishi
Innovatsion infratuzilma integratsiyasini kuchaytirish	Texnopark, inkubator, akselerator, ilmiy tashkilot va investorlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud	Yagona innovatsion platforma; startaplarni bosqichma-bosqich qo'llab-quvvatlash; texnologiya transferi; prototiplash va sertifikatlash xizmatlari	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va innovatsion bizneslar sonining oshishi
Kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish tizimini rivojlantirish	Raqamli xizmatlarga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, ma'lumotlar xavfsizligi va biznes uzluksizligini ta'minlash imkoniyatlari mavjud	Minimal kiberxavfsizlik standartlari; zaxira nusxalash; elektron autentifikatsiya; xavflarni audit qilish; kichik biznes uchun umumiy himoya servislarini tashkil etish	Raqamli operatsiyalar xavfsizligi, ma'lumotlar himoyasi va biznesning uzluksizligi

Infratuzilma investitsiyalarining samaradorligini loyiha daromadi va joriy xarajatlarning qoplanishi bilan bir qatorda, ularning keng ko'lamlı iqtisodiy va ijtimoiy natijalari asosida kompleks baholash maqsadga muvofiq. Ayrim infratuzilma obyektlari tijorat daromadini bevosita shakllantirsa, transport, energetika, raqamli aloqa, ta'lim va innovatsion infratuzilmaning sezilarli qismi bilvosita hamda uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy samara yaratadi. Shu sababli baholashda quyidagilar hisobga olinishi lozim:

7 Manba: Muallif ishlanmasi.



$$IE = FE + TE + SE + RE + EE,$$

bu yerda: IE — infratuzilmaning umumiy samarasi; FE — to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy samara; TE — tranzaksiya va logistika xarajatlarning qisqarishi; SE — ijtimoiy samara, jumladan, mehnat imkoniyatlarining kengayishi; RE — hududiy rivojlanish va kooperatsiya samarasi; EE — ekologik hamda resurs tejamlorligi samarasi.

Demak, infratuzilma obyektining bevosita moliyaviy qaytimi past bo'lishi uning iqtisodiy samarasizligini anglatmaydi. Bunday loyihalarni hayotiy sikl xarajatlari, foyda-xarajat tahlili, hududiy multiplikativ ta'sir va xizmatlardan foydalanuvchilar unumdorligidagi o'zgarishlar asosida baholash maqsadga muvofiq.

Mahalliy tadqiqotlarda ham kichik biznes uchun moslashtirilgan infratuzilma yechimlari, davlat-xususiy sheriklik va infratuzilmadan foydalanishni moliyalashtirish uning rivojlanishidagi ustuvor yo'nalishlar sifatida ko'rsatilgan [7].

“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasida elektron hukumat, raqamli industriya, raqamli ta'lim va raqamli infratuzilmani rivojlantirish o'zaro bog'langan yo'nalishlar sifatida belgilangan. Innovatsion rivojlanish strategiyasida esa innovatsion ekotizim, ilm-fan va iqtisodiyot integratsiyasi hamda yangi texnologiyalarni tijoratlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan (3-jadval) [1].

3-jadval. Kichik biznes infratuzilmasining funksional-sektoral tarkibi⁸

Infratuzilma guruhi	Tarkibiy soha va obyektlar	Kichik biznes uchun asosiy funksiyasi	Raqamli rivojlanish yo'nalishi
Ishlab chiqarish infratuzilmasi	Sanoat zonalar, ishlab chiqarish binolari, uskunalar, irrigatsiya va xomashyo ta'minoti	Ishlab chiqarish quvvatlari va moddiy resurslardan foydalanishni ta'minlash	IoT, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, umumiy raqamli uskunalar markazlari
Muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi	Elektr energiyasi, gaz, suv ta'minoti, kanalizatsiya, chiqindilarni boshqarish	Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining uzluksizligi	Aqlli hisoblagichlar, masofaviy monitoring, resurslar sarfini optimallashtirish
Transport-logistika infratuzilmasi	Avtomobil va temir yo'llar, logistika markazlari, omborlar, kuryerlik xizmatlari	Tovar va resurslarning hududiy harakatini tashkil etish	Elektron logistika, GPS kuzatuv, omborlarni raqamli boshqarish
Moliyaviy-bozor infratuzilmasi	Banklar, mikromoliya, sug'urta, lizing, faktoring, birjalar va savdo maydonlari	Kapital, sug'urta va sotish kanallaridan foydalanishni kengaytirish	Fintech, onlayn skoring, raqamli to'lov, elektron savdo va marketpleyslar
Axborot-konsalting infratuzilmasi	Biznes markazlari, Savdo-sanoat palatasi, auditorlik, marketing va yuridik xizmatlar	Axborot nomutanosibligini kamaytirish va qarorlar sifatini oshirish	Onlayn konsalting, ochiq ma'lumotlar, biznes-analitika va sun'iy intellekt yordamchilari
Innovatsion va ilmiy-ta'lim infratuzilmasi	Universitetlar, ilmiy institutlar, texnoparklar, inkubatorlar, akseleratorlar va vechur fondlari	Bilim va texnologiyalarni biznesga transfer qilish	Startup platformalari, masofaviy akseleratsiya, raqamli ekspertiza va prototiplash
Ijtimoiy va xizmatlar infratuzilmasi	Ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm, madaniyat, sport va ijtimoiy xizmatlar	Inson kapitali va hududning yashash jozibadorligini oshirish	Telemeditsina, onlayn ta'lim, raqamli turizm va elektron xizmatlar
Davlat-institutsional infratuzilmasi	Davlat xizmatlari, litsenziyalash, standartlashtirish, sertifikatlash va nazorat organlari	Qonuniy faoliyat, mulk huquqi va raqobat muhitini ta'minlash	Elektron hukumat, raqamli identifikatsiya, avtomatik ruxsat berish va riskka asoslangan nazorat
Raqamli va kiberxavfsizlik infratuzilmasi	Telekommunikatsiya tarmoqlari, ma'lumotlar markazlari, bulutli servis va himoya tizimlari	Barcha infratuzilma turlarini integratsiyalash va faoliyat uzluksizligini ta'minlash	Keng polosali internet, bulutli hisoblash, API integratsiyasi va kiberxavfsizlik xizmatlari

Milliy ma'muriy-hududiy tuzilma va kichik biznes ehtiyojlarini hisobga olgan holda infratuzilmaviy ta'minotni quyidagi darajalarda tizimlashtirish ilmiy jihatdan asosliroq hisoblanadi (4-jadval).

8 Manba: Muallif ishlanmasi.



4-jadval

Kichik biznes infratuzilmaviy ta'minotining darajalari va funksional vazifalari⁹

Daraja	Asosiy infratuzilmaviy vazifa
Mikrodaraja — korxona	Ichki ishlab chiqarish, boshqaruv, moliyaviy hisob, marketing va raqamli xavfsizlik tizimlarini shakllantirish
Tuman va shahar darajasi	Savdo, servis, kommunal, logistika, mahalliy konsalting va davlat xizmatlariga tezkor kirishni ta'minlash
Hududiy daraja — viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahri	Sanoat zonalari, hududiy moliyaviy institutlar, texnoparklar, oliy ta'lim va yirik logistika tizimlarini muvofiqlashtirish
Respublika darajasi	Makroiqtisodiy siyosat, qonunchilik, moliya bozorlari, standartlashtirish, raqamli platformalar va umumrespublika infratuzilmasini rivojlantirish

Mazkur darajalar o'zaro uyg'unlashgan va bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli platformalar tuman yoki viloyat chegaralaridan tashqarida xizmat ko'rsatishi sababli infratuzilmaviy boshqaruv vertikal vakolatlar bilan birga gorizontaal ma'lumot almashinuvi va platformalararo integratsiyaga ham asoslanishi kerak.

Kichik biznes infratuzilmasining funksional ustuvorliklari hududlarning rivojlanish darajasi, resurs salohiyati va tadbirkorlik ehtiyojlariga muvofiq differensial belgilanadi. Infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud hududlarda energetika, transport-logistika, moliyaviy va telekommunikatsiya xizmatlari ustuvor bo'lsa, rivojlangan hududlarda innovatsion infratuzilma, raqamli platformalar integratsiyasi, texnologiyalar transferi va venchur moliyalashtirishga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq.

Amalga oshirilgan nazariy tahlillar asosida kichik biznes faoliyatining infratuzilmaviy ta'minotini tadbirkorlik subyektlariga alohida moddiy, moliyaviy, institutsional, axborot, innovatsion va raqamli resurslarni taqdim etuvchi tashkilotlarning o'zaro uyg'unlashgan tizimi sifatida baholash maqsadga muvofiq. Uni davlat boshqaruvi organlari, moliyaviy institutlar, ilmiy-ta'lim muassasalari, konsalting va logistika tashkilotlari, raqamli platformalar hamda tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni muvofiqlashtiruvchi, tashqi va ichki muhit o'zgarishlariga moslashuvchi ko'p darajali hududiy ekotizim sifatida talqin etish ilmiy jihatdan asosliroqdir. Mazkur ekotizimning asosiy vazifasi resurslarni taqdim etish bilan bir qatorda, ularning tadbirkorlik subyektlariga tezkor, uzluksiz va iqtisodiy jihatdan maqbul shartlarda yetib borishini ta'minlashdan iborat (5-jadval).

5-jadval

Kichik biznes infratuzilmaviy ta'minotining takomillashtirilgan funksiyalari¹⁰

Funksiya	Mazmuni
Ta'minlovchi funksiya	Kichik biznesning moddiy, moliyaviy, axborot, kadr va texnologik resurslardan foydalanishiga sharoit yaratadi
Muvofiqlashtiruvchi funksiya	Davlat, biznes, moliyaviy institutlar, ta'lim va jamoat tashkilotlari faoliyatini uyg'unlashtiradi
Innovatsion funksiya	Ilmiy g'oya va texnologiyalarni biznes jarayonlariga transfer qilish hamda tijoratlashtirishga ko'maklashadi
Axborot-tahliliy funksiya	Bozor, moliya, huquqiy talablar va texnologiyalar haqidagi ma'lumotlarni yig'adi, qayta ishlaydi va tadbirkorlarga yetkazadi
Moslashuvchan funksiya	Tashqi shoklar va bozor o'zgarishlariga javoban xizmatlar hamda resurslarni qayta yo'naltiradi
Risklarni kamaytirish funksiyasi	Kredit, bozor, texnologik va operatsion tavakkalchiliklarni kafolat, sug'urta, maslahat va monitoring orqali pasaytiradi
Raqobatni qo'llab-quvvatlash funksiyasi	Bozorga kirish to'siqlarini kamaytirib, infratuzilma resurslaridan teng foydalanish imkoniyatini kengaytiradi
Tartibga soluvchi va profilaktik funksiya	Soliqdan qochish, korrupsiya, insofsiz raqobat va norasmiy faoliyat xavfini shaffof raqamli jarayonlar orqali kamaytiradi
Ijtimoiy-ekologik funksiya	Mehnat sharoiti, ekologik standartlar, resurs tejamkorligi va hududiy ijtimoiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlaydi
Monitoring va qayta aloqa funksiyasi	Xizmatlar sifati, tadbirkorlar ehtiyoji va infratuzilma natijadorligini real vaqt ma'lumotlari asosida baholaydi

9 Manba: Muallif ishlanmasi.

10 Manba: Muallif ishlanmasi.



Shu nuqtayi nazardan, infratuzilmaviy ta'minot samaradorligini obyektlar yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar soni bilan emas, balki quyidagi mantiqiy-natijaviy zanjir asosida baholash maqsadga muvofiq: resurs va xizmatlardan foydalanish imkoniyati → xizmatlarning sifati va tezkorligi → tranzaksiya xarajatlarining qisqarishi → korxona faoliyatining barqarorlashuvi → hududiy iqtisodiy natijadorlik.

Bunda infratuzilmaning funksional vazifalari tadbirkorlik rivojini qo'llab-quvvatlash bilangina cheklanmaydi. U raqamli shaffoflikni ta'minlash, norasmiy iqtisodiy faoliyat va korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish, sog'lom raqobat muhitini himoya qilish, ekologik me'yorlarga rioya etishni rag'batlantirish hamda tadbirkorlik faoliyatining salbiy tashqi ta'sirlarini yumshatishga ham xizmat qilishi lozim. Demak, kichik biznes infratuzilmasining natijadorligi uning iqtisodiy, institutsional, ijtimoiy, ekologik va raqamli samaralarining o'zaro uyg'unligi orqali kompleks baholanishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari raqamlashtirish sharoitida kichik biznes infratuzilmasini alohida obyekt va tashkilotlar majmui sifatida emas, balki moliyaviy, institutsional, axborot-konsalting, innovatsion, logistika va raqamli xizmatlarni o'zaro integratsiyalovchi tizimli-moslashuvchan ekotizim sifatida rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi. Infratuzilma samaradorligini obyektlar soni bilan emas, balki xizmatlardan foydalanish imkoniyati, tezkorlik, integratsiya, moslashuvchanlik, raqamli xavfsizlik va iqtisodiy natijadorlik mezonlari orqali baholash maqsadga muvofiq.

Shundan kelib chiqib, yagona raqamli infratuzilmaviy muhitni rivojlantirish, davlat va biznes axborot tizimlari integratsiyasini kuchaytirish, xizmatlarni raqamli monitoring va qayta aloqa asosida boshqarish, hududlararo infratuzilmaviy tafovutlarni kamaytirish hamda tadbirkorlarning raqamli kompetensiyasi va kiberxavfsizligini oshirish taklif etiladi. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, kichik biznes barqarorligi va innovatsion faolligini oshirish hamda hududiy raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-5030957>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-noyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-244-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-6279879>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentyabrdagi "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-306-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-6609110>
4. Nambisan, S. (2017). Digital Entrepreneurship: Toward a Digital Technology Perspective of Entrepreneurship. *Entrepreneurship Theory and Practice*, 41(6), 1029–1055. DOI: 10.1111/etap.12254. URL: <https://journals.sagepub.com/doi/10.1111/etap.12254>
5. Sussan, F., & Acs, Z. J. (2017). The Digital Entrepreneurial Ecosystem. *Small Business Economics*, 49(1), 55–73. DOI: 10.1007/s11187-017-9867-5. // URL: https://ideas.repec.org/a/kap/sbusec/v49y2017i1d10.1007_s11187-017-9867-5.html
6. OECD (2021). The Digital Transformation of SMEs. *OECD Studies on SMEs and Entrepreneurship*. Paris: OECD Publishing. DOI: 10.1787/bdb9256a-en // URL: https://www.oecd.org/en/publications/the-digital-transformation-of-smes_bdb9256a-en.html
7. Kosimov, S. D. (2023). Enhancing Small Business Growth through Effective Infrastructure Development: A Comprehensive Analysis. *Economics and Innovative Technologies*, 11(3), 302–314. DOI: 10.55439/EIT/vol11_iss3/i32. // URL: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/view/308>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
